

## BOSHLANG'ICH TA'LIM YOSHIDAGI BOLALAR AQLIY TARAQQIYOTI RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

*Qashqadaryo viloyat Qamashi tumani  
85-maktab Boshlang'ich ta'lim 1-sinf o'qituvchisi  
G'aynazarova Saidaxon G'ułomovna*

**Annotatsiya:** Maqolada kichik maktab yoshidagi bolalarni aqliy rivojlanishiga tasir etuvchi omillar va ularni psixologik rivojlanishdagi ta'siri haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** taraqqiyot, o'quvchi, kichik maktab yoshi, qiziqish, o'qish, topshiriq, axloqiy sifat, mustaqil fikrlash, malaka va ko`nikma.

Boshlang'ich sinf o'quvchilar ishonuvchan, tashqi taassurotlarga beriluvchan bo'ladilar. Buyuk alomallarimiz ta'kidlaganidek, kishining fe'l atvori hammadan ko'ra ko'proq hayotining dastlabki yillarda tarkib topadi va unda shu davrda paydo bo'lган sifatlar mustahkam o'rashib kishining ikkinchi tabiatiga aylanadi. Insonning ikkichi tabiatida tabiiy hissiyotlarni fazilatlarni tarkib toptirish yukask axloq normalarini shakllantirish uchun butun ma'suliyat boshlang'ich sinf o'qituvchisining zimmasiga tushadi. Bolaning mazkur davrida o'qituvchining har bir gapi har bir hatti harakati ta'sir ko'rsatish uning uchun haqiqat mezoni vazifasini bajaradi. Chunki o'quvchilar o'qituvchilarga qattiq ishonadilar. Uning fikr mulohazalariga quloiq soladilar. Pedagogik nazokatida jiddiy tasvirlanadilar. Talablarga hamisha amal qiladilar. U bergen topshriqlarni bekamu kust bajarishga intiladilar. To'g'ri mulohaza yurtishga o'rganish noma'qul qiliqlardan tiyish va musiqa tinglashga odatlantirish ularga nimalar bilan shug'ulanish kerakligini, burch hissini tushuntirish ular bilan o'qilgan kitoblarni, ko'rilgan tomoshalarni muhokama qilish imkoniyati tug'iladi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning axloqiy sifatlarni rivojlantirishdagi koz'langan maqsadga erishish uchun ularning yoshi va psixologik xususiyatlarini hisobga olish shart. Ma'lumki,

oquvchilarning psixologik xususiyatlari har xil bo'lib, bir o'quvchiga muvaffaqiyat bilan qo'llangan tarbiyaviy ta'sir vositasi boshqa birga qo'llanilganda kutilgan natijani bermasligi mumkin. Tarbiyaviy tadbirlar o'quvchilarga yakkamayakka yondoshib amalga oshirilsa yaxshiroq samaraga erishilishi shubhasizdir. Mazkur vazifalarni amalga oshirish o'qituvchi o'quvchilarning xususiyatlarini qanchalik o'rganganligiga bog'liqdir. Ta'lism jarayonida har bir o'quvchining psixik dunyosiga oqilona yo'l topa olish muvaffaqiyatlarning garovidir. Ta'lism - tarbiya jarayonida bolalarni hayoti va faoliyatini shunday uyushtirish lozimki, bunda bola shaxsining kichik yoshida o'quvchilarda tarkib topgan xususiyatlar toboro boyib va mustahkamlanib boradi. Maktab ta'limining dastlabki yilaridagi bilishga bo'lgan qiziqishlar, tevarak atrofdagi olamni bilishga bo'lgan qiziqish ko`proq intellektual qiziquvchanlikni sezilarli ravishda rivojlantiradi. Psixologlarning ta'kidlashicha, dastavval ayrim faktlarga, boshqa narsalardan ajratib olinadigan hodisalarga nisbatan qiziqishlar hosil bo`ladi. O`qish faoliyatida kichik yoshdagi o'quvchilarning aqliy jarayonlari bilish uchun bo'lgan qiziqishlar bilan faollashib qiziqisho`quvchilarning aqliy faoliyati asosida paydo bo`ladi va uning shaxsiy individual sifatida o'quvchilarning ana shu aqliy faoliyatini yanada rivojlantiradi. O`quvchilarning qiziqishlari mazmuni, barqarorligi jihatdan hilma – xildir. Keng mazmunli va barqaror qiziqishlar o'quvchilarning yoshligidan paydo bo`la boshlaydi. Ma'lumki I-II sinf o'quvchilarida xali qiziqishlar yaqqol namoyon bo`lmaydi, o'quvchilar o`qish jarayonida hamma narsalarga qiziqish bilan munosabatda bo`ladilar. O`zları o`zlashtirgan faoliyat ularni qanoatlantiradi. Keyinchalik esa, sabablarni, qonuniyatlarni, hodisalar o`rtasidagi aloqa va bog`liqliklarni bilib olish uchun bo'lgan qiziqishlar rivojlanadi. Agar I-II sinf o'quvchilarini "Bu nima?" – degan savol ko`proq qiziqtirsa, bir mucha kattaroq yoshdagi bolalar uchun "Nima sababdan?", "Qanday qilib?" degan savollar muhim bo`lib qoladi. O`qish malakasining rivojlanishi bilan kitob o`qishga qiziqish yuzaga keladi. Dastavval kitob o`qishga, undan so`ng esa mazmuni o`tkir va qiziqarli bo'lgan muayyan adabiyotlarni, ertaklarni o`qishga, keyinchalik qiyin bo`lмаган ilmiy sarguzashtlar haqida kitoblarni o`qishga qiziqish paydo bo`ladi. I-II sinf o'quvchilarini o`zlashtirayotgan materialni mazmuni, o`qish ishlarining ayrim

usullari o`ziga jalgan eta boshlaydi. III va IV sinf o`quvchilarining mustaqilligi o`sib boradi. Bu yoshdagagi o`quvchilar aqliy faoliyat usullari, o`z xotirasi, nutqi, diqqati hamda irodasini o`stirish bilan bog`liq bo`lgan barcha ishlarga qiziqqa boshlaydi. IV sinfda o`quvchilar o`zlarining har xil fanga bo`lgan qiziqishlarini aniq belgilaydilar. Fanlardan ba'zilariga ko`proq e'tibor berib uni yoqtirsalar, ba'zilarini yoqtirmaydilar. O`quvchilar qaysi ishdan ko`proq qanoat hosil qilsalar, shu ishlar ularda qiziqish paydo qiladi. Bola ma'lum ishni bajarayotganda o`ziga bo`lgan ishonchni yo`qotmasligi, o`ziga topshirilgan ishni bajara olishni bilish, buning uchun esa faqat g`ayrat – shijoat ko`rsatish kerakligini anglashi kerak. O`quvchilarda ta'lim va tarbiya olish, dam olish tartibining to`q`ri uyuşhtirilishi ham o`quvchilarda qiziqishlarning barqaror bo`lishida muhim ahamiyatga ega. O`quvchilarning qiziqishlari kattalarni diqqat e'tiborida bo`lishi lozim. Bolalarni ijobjiy qiziqishlari kattalar tomonidan rag`batlantirishi, quvvatlantirilishi kerak. Ularni qiziqishlarini payqash, uning uchun eng sevimli, doimo o`ziga jalgan etadigan faoliyatni e'tiborga olmaydigan o`qituvchi va ota-onalar yomon pedagog va yomon tarbiyachidir. O`quvchi uchun o`qituvchi hayotining eng yaxshi idealidir. Doimo oldinga qarab intiluvchi, mazmunli keng qiziqishlar bilan yashovchi o`qituvchi o`quvchilarga yuksak ma'naviy qiziqishlarni, aqliy rivojlanishni paydo bo`lishiga yordam beradi. Shu bilan bir qatorda texnikaga, hozirgi zamon texnikalari, eng yangi tipdagi avtomobil, samolyot, kopmyuterga bo`lgan qiziqishlar tez tarkib topadi. Qishloq maktablarining III va IV sinf o`quvchilari qishloq xo`jaligiga nisbatan sezilarli darajada o`z qiziqishlarini namoyon qila boshlaydi. Bolalar parandalarni, uy hayvonlarini bajonidil boqadilar va ular haqida ma'lumotlar to`play boshlaydilar. Bu esa bolalarni bilish darajasini rivojlanishiga ta'sir etib boradi. Kichik mакtab yoshidagi bolalarda o`qishga bo`lgan qiziqishni rivojlanishi to`g`ridan – to`g`ri ta'limning tashkil qilinishiga bog`liq. Shuning uchun o`qituvchi boshlang`ich sinf o`quvchilarida qiziqishlar rivojlanishining qonuniyatlarini nazarda tutishlari kerak. O`quvchilarda qiziqishlar, aqliy taraqqiyot rivojlanishi oddiydan murakkabga, ma'lumdan noma'lumga, yaqindan uzoqqa, tasvirlashdan tushuntirishga, faktlardan umumlashtirishga qarab boradi. O`quvchilarni ta'limni o`zlashtirishga quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

• O`quvchilar qanchalik yosh bo`lsalar, ta'lif shunchalik ko`rgazmali bo`lishi hamda faol harakt qilish katta rol o`ynaydi. Barcha o`quvchilar bir xil bilimga ega emas, ular turli tayyorgarlik darajasiga ega va bundan boshqacha bo`lishi ham mumkin emas. Shu sababli berilgan materialni bilmaslik past o`zlashtirishning asl sababini ko`rsatmasligi mumkin. Bilamizki, ko`pchilik pedagoglar o`quvchilarning aqliy rivojlanishini baholashda qiynaladilar va buning oqibatida ularning ish faoliyatida ta'lif jarayonida hisobga olinishi lozim bo`lgan muhim omil go`yoki chetda qolib ketadi. Shuni ta'kidlab o`tish kerakki, o`quvchilarning aqliy rivojlanish darajasi ulardagi nazariy yoki amaliy bilim olishga bo`lgan qobiliyat yoki bilimning mavjudligi bilangina aniqlanmaydi. O`quvchining aqliy rivojlanish darajasi tafakkur jarayonlarining rivojlanganligi, o`quv materialining muhim va asosiyлarni ajrata olishi, olgan bilim yoki hosil qilingan, o`zlashtirilgan ko`nikmani boshqa faoliyatga ko`chira olishi, turli nazariy bilimlarni amalda qo`llay olishi, mustaqil fikrashi, xulosa chiqara olishi kabi bir qancha belgilar bilan aniqlanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boymurodov N Amaliy psixologiya T.: 2008 y- 316 b.
2. Dilnoza Xalkuziyeva ., Maktabgacha yoshdagи bolalarni mакtabga axloqiy-irodaviy tayyorligining psixologik jihatlari. SCIENTIFIC PROGRESS. 2021/6, pp 704-706
3. Khakimov, S. R., & Sharopov, B. K. (2023). Educational Quality Improvement Events Based on Exhibition Materials in Practical Training Lessons. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education*, 1(2), 5-10.
4. Шаропов, Б. Х., Хакимов, С. Р., & Рахимова, С. (2021). Оптимизация режимов гелиотеплохимической обработки золоцементных композиций. *Матрица научного познания*, (12-1), 115-123.
5. Хакимов, С. (2022). АКТИВ ВА ПАССИВ СЕЙСМИК УСУЛЛАРИ ҲАМДА УЛАРНИНГ АСОСИЙ ВАЗИФАЛАРИ. *Journal of Integrated Education and Research*, 1(2), 30-36.
6. Xakimov, S., & Dadaxanov, F. (2022). STATE OF HEAT CONDUCTIVITY OF WALLS OF RESIDENTIAL BUILDINGS. *Science and innovation*, 1(C7), 223-226.
7. Ювмитов, А. С., & Хакимов, С. Р. (2020). Исследование влияния сейсмоизоляции на динамические характеристики ЗДАНИЯ. *Acta of Turin Polytechnic University in Tashkent*, 10(2), 14.
8. Yuvmitov, A., & Hakimov, S. R. (2021). Influence of seismic isolation on the stress-strain state of buildings. *Acta of Turin Polytechnic University in Tashkent*, 11(1), 71-79.